

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«Tasdiqlayman»
Buxoro davlat universiteti rektori
O.X. Xamidov
«30» *avgust* 2022-yil

“O'ZBEK TILINI SOHADA QO'LLANILISHI”
fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	900000	<i>Sog'liql saqlash va ijtimoiy ta'minot</i>
Ta'lim sohasi	920000	<i>Ijtimoiy ta'minot</i>
Ta'lim yo'nalishi	60920101	<i>Ijtimoiy ish (oila va bolalar bilan shug'ullanish)</i>

Fanning kodi: *O'TSQ1302*
Semestr: *4*
Kreditlar soni: *2*

Buxoro -2022

Fan/modul kodi O'ZSQ1302	O'quv yili 2022-2023	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek tilining sohada qo'llanishi	30	30	60
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'rganish zaruriyati. Talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosligi doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilida yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlashdan iborat.</p> <p>Fanning maqsadi: o'zbek adabiy tili me'yorlari bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lishi, sohaga oid tayanch tushunchalar, so'z va iboralardan o'rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, sohaga oid ish hujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirish malakasiga ega bo'lishi, kasbiy muloqot yuritish malakasiga ega bo'lishi kerak.</p> <p>Fanning vazifasi – kundalik faoliyatda hamda turmushda zarur bo'lgan mavzularda o'zbek tilida mustaqil so'zlay olish va yozish malakalarini takomillashtirish, ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olish, uni o'zgartira bilish malakalarini takomillashtirish, muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik doirasida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, turli tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini oshirish, o'zbek tilidagi axborotni tushunish, unga tanqidiy, tahliliy munosabat bildirishni o'rgatish kabi vazifalarni nazarda tutadi.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg'ulotlar) Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: O'zbek tilining sohada qo'llanishi O'zbek tilini sohaga yo'naltirib o'qitishning maqsad va vazifalari. Tilning jamiyatda tutgan o'rni. Til va tafakkur. Til va madaniyat munosabati.</p> <p>2-mavzu: O'zbek tili ijtimoiy funksiyalarining kengayishi: jamiyatdagi o'zgarishlar va til rivoji. Til funksiyalari. Til ijtimoiy funksiyalari kengayishining so'z semantik strukturasi ta'siri.</p>			

3-mavzu: O'zbek adabiy tili me'yorlari.

Fonetik, leksik-semantik me'yor. Orfografik, orfoepik me'yor.
Morfologik va sintaktik me'yorlar.

**4-mavzu: O'zbek-lotin alifbosining imlo qoidalari. O'zbek tilida
tinish belgilari.**

Asos va qo'shimchalar imlosi. Qo'shib va ajratib yozish.

Bosh harflar imlosi. Ko'chirish qoidalari. Tinish belgilarining qo'llanishi.

5-mavzu: Nutq uslublari va ularning xususiyatlari.

Nutq uslublarining shakllanishi. Nutq uslublari turlari.

6-mavzu: Ilmiy uslub. Sohaviy terminlarning leksik xususiyatlari.

Ilmiy-ommabop uslub. Sohaviy terminlar va ularni qo'llash xususiyatlari.

Ilmiy-ommabop matnlar.

7-mavzu: Ilmiy uslub. Sohaviy terminlarning yasalishi.

Sohaga oid qisqartmalar. Soha lug'atlari.

8-mavzu: Ilmiy uslub – ilmiy tadqiqot yaratish uslubi.

Soha doirasida belgilangan mavzuda ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari.

Maqola, tezis, taqriz, rezyume, annotatsiya matniga qo'yiladigan talablar.

9-mavzu: Mutaxassis nutqining kommunikativ sifatlari.

Mutaxassis nutqining ilmiyligi, to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, sofligi.

Nutqiy kompetentlik. Zamonaviy nutqda uchraydigan tipik xatolar.

10-mavzu: Sohaga oid taqdimot nutqi.

Sohaga oid taqdimot nutqi yaratish qoidalari. Taqdimot nutqi.

Taqdimot etikasi. Xalqaro loyiha, vebinar, forum kabilar uchun sohaviy
nutq tuzish imkoniyatlari.

11-mavzu: Rasmiy uslubga xos xususiyatlar.

Rasmiy uslubning shakllanishi, xususiyatlari.

Mustaqillik davrida rasmiy-idoraviy uslubning rivojlanishi.

Mustaqillik davrida rasmiy-idoraviy ish uslubida ro'y bergan
leksik, morfologik, sintaktik o'zgarishlar.

12-mavzu: Sohada davlat tilida ish yuritish masalalari.

Tashkiliy hujjatlar.

Rasmiy-idoraviy uslub hujjatlari. Tashkiliy hujjatlar, ularning zaruriy qismlari.

13-mavzu: Sohaviy farmoyish hujjatlarining xususiyatlari.
Farmoyish hujjatlarining turlari. Farmoyish hujjatlarini sohalarda qo'llash xususiyatlari.

14-mavzu: Sohaviy ma'lumot-axborot hujjatlari.
Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari. Ma'lumot-axborot hujjatlarini yuritish tartibi va qo'llash xususiyatlari.

15-mavzu: Sohaviy xizmat yozishmalari.
Xizmat yozishmalarining turlari.
Xizmat yozishmalarini sohalarda qo'llash xususiyatlari.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning bosh maqsadi talabalarning o'quv fani asosida olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tafakkurni o'stirish, o'z ustida ishlash va mustaqil tahlil qilish malakasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlashdan iborat. Shu maqsadga muvofiq, fan va mustaqil ta'lim mavzulariga doir adabiyotlar ustida ishlash va ularni puxta o'zlashtirish, tushunchalar konspekti, referat, ma'ruza, esse, tezis va maqola tayyorlash, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun nazariy ma'lumotlarni to'plash va chuqur o'rganish, til birliklari va hodisalari mohiyatini modellashtirish, ularni chizma va jadvallarda aks ettirish, mavzular bo'yicha o'rganish obyektiga mos grafik organayzerlarni qo'llash va taqdimotlar tayyorlash talab qilinadi.

3.1. Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar:

Talabalar fan bo'yicha o'quv, o'quv-usuliy, ilmiy adabiyotlarni chuqur o'zlashtirib, internet saytlaridagi manbalar va media ta'lim resurslaridan o'rinli foydalangan holda, mustaqil ta'lim topshiriqlari, mashg'ulot mavzulariga doir vazifalarni bajarishlari lozim.

Mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olib, quyidagi vazifalarni bajarish va mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'rganish.
2. Tarqatma materiallar bo'yicha nazariy qismni o'zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma'lumotlarni tanlash va o'zlashtirish.
4. Fanga doir adabiyotlar bo'yicha tushunchalar konspektini yozish.
5. Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha referat tayyorlash.

6. Amaliy mashg'ulotlar uchun taqdimot tayyorlash.
7. O'rganilayotgan masalalar bo'yicha tezis, maqola yoki ma'ruza tayyorlash.
8. Mavzularni o'rganishda grafikli organayzerlardan foydalanish.
9. Til birliklari (hodisalari)ning qo'llanilishiga doir dalillar to'plash va tahlil qilish.
10. Mavzu doirasidagi masalalarning xorijiy va milliy tilshunoslikdagi tadqiqiga oid ilmiy asarlar (dissertatsiya, avtoreferat, monografiya, risola, maqola) bilan tanishish va qiyosiy tahlilini tezislar shaklida bayon etish.
11. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan qiziqarli o'quv topshiriqlari, nostandart test namunalarini tayyorlash.

3.2. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Respublikamizda o'zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo'yicha qilinayotgan ishlar.
2. O'zbek adabiy tili me'yorlari.
3. Soha lug'atlari. Glossariy.
4. Sohaning faol va nafaol terminlari.
5. Sohaga oid qisqartmalar.
6. Kasbiy nutq odobi. Sohaga oid nutqning o'ziga xosliklari.
7. O'zbek tilining izohli lug'atida soha terminlarining berilishi.
8. Sohada ish yuritish hujjatlari.
9. Tashkiliy hujjatlar.
10. Farmoyish hujjatlari.
11. Ma'lumot-axborot hujjatlari.
12. Sohaviy xizmat yozishmalari.
13. Mustaqillik davrida rasmiy-idoraviy ish uslubi.
14. So'zlashuv uslubi.
15. Nutq madaniyati: nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi.

Mavzular talabalar tomonidan fan bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar, shuningdek, qo'shimcha tarzda topilgan o'quv-ilmiy manbalar asosida puxta o'rganilib, "*Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar*"da ko'rsatilgan mustaqil ta'lim shakllaridan foydalangan holda tayyorlanishi lozim.

Mustaqil ta'limga doir materiallarni o'zlashtirish va topshiriqlarni bajarish natijasi nazorat qilinadi. Mustaqil ishlar talabaning o'quv fani bo'yicha bilim va malakasini baholashda inobatga olinadi.

3.	<p>IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talabalarda o'zbek tilining sohada qo'llanishi bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi; - adabiy til nazariyasi va uslubiy me'yorlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - nutq uslublari, ularning o'ziga xos xususiyatlari borligini; - til vositalarining matn tarkibidagi amaliy ahamiyatini; - matn ustida ishlash jarayonida tilning grammatik va stilistik usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - matnlarni tahlil qilish jarayonida lug'at bilan ishlash, mavzuga oid turli manbalardan foydalanish; - nutq jarayonida o'zbek tili imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish kompetensiyasiga ega bo'lishi; - sohada faol qo'llanadigan terminlar mohiyatini anglashi; - sohaga oid tayanch tushunchalar, so'z va iboralardan o'rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish ko'nikmasiga; - sohaga oid ish hujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirish; - kasbiy muloqot yuritish <i>malakasiga ega bo'lishi</i> lozim.
4.	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar; • individual loyihalar; • jamoaviy ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VI. Kreditlarni to'plash tartibi va talablari:</p> <p>Fanga oid nazariy tayanch tushuncha va masalalarni to'liq o'zlashtirish, amaliy tahlil malakasiga ega bo'lish hamda tahlil natijalarini aniq, dalilli va to'g'ri aks ettira olish, fan doirasidagi masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va mantiqiy izchil xulosalash, oraliq va yakuniy nazorat turlariga doir vazifalarni –yozma ish, og'zaki savol-javob yoki test shaklidagi topshiriqlarni bajarish lozim.</p> <p>Talaba semestr yakuniga qadar 2 kredit to'plashi zarur va bunga 100 ball beriladi.</p>

Ballar taqsimoti

№	Fanga oid nazorat turi	Ball miqdori
1.	Oraliq nazorat	50
2.	Yakuniy nazorat	50
	Jami:	100

Talabalarni baholash tartibi

Baholash tartibi o'z ichiga nazoratlar turi (oraliq, joriy va yakuniy)ni qamrab oladi. Talabaning o'zlashtirish darajasi quyidagi yo'l bilan baholanadi:

Darajasi	Ballar (foiz)	Reyting	
A+	95 - 100 ball	5	A'LO
A	90 - 94 ball	4.0	
B+	85 - 89 ball	3.5	JUDA YAXSHI
B	80 - 84 ball	3.0	
C+	75 - 79 ball	2.5	YAXSHI
C	70 - 74 ball	2.0	
D+	65 - 69 ball	1.5	SHARTLI
D	60 - 64 ball	1.0	O'TDI
F	59 ball va undan past	0.0	O'TMADI

Talabaning o'zlashtirishini belgilash mezonlari

“A+”, “A”, “B+” baho: talaba materiallarni mustaqil ravishda tez o'zlashtiradi; xatolarga yo'l qo'ymaydi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi.

“B”, “C+”, “C” baho: talaba materiallarni yaxshi o'zlashtirgan, uni mantiqiy ifoda eta oladi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi, biroq uncha jiddiy bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yadi.

“D+”, “D” baho: asosiy materiallarni biladi, biroq aniq ifoda etishga qiynaladi; savollarga javob berishda aniqlik va to'liqlik yetishmaydi; materiallarni taqdim etishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi; kommunikatsiya jarayonida qiyinchilik sezadi.

“F” (o'tmadi) baho: materiallarni o'zlashtirmagan; savollarga javob bera olmaydi; mashg'ulotlarda ishtirok etmaydi.

Talabalarni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

- mashg'ulotlardagi ishtiroki (davomati);
- mashg'ulotlardagi faollik va ijodiy yondashuv;
- asosiy va qo'shimcha o'quv materiallarini o'zlashtirganlik;
- mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlarning o'z vaqtidagi ijrosi;

– nazoratning barcha turlarini o'z vaqtida bajarganlik.

Akademik va etik talablar

Nazorat topshiriqlarini bajarishda ko'chirmakashlikka (plagiatlikka) yo'l qo'yilmaydi.

Test, o'quv loyihalari, mustaqil ishlar, oraliq, joriy, yakuniy nazorat topshiriqlarini boshqa shaxslardan ko'chirib olinishiga yo'l qo'yilmaydi, boshqa talabning o'miga imtihon topshirish ta'qiqlanadi.

Kurs bo'yicha har qanday nazorat topshirig'ini soxtalashtirgan talaba "fanni o'zlashtirmagan" ("F") hisoblanadi.

Mashg'ulotlar paytida mobil aloqa va boshqa elektron qurilmalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mashg'ulotlar paytida auditoriyada (virtual auditoriyada) belgilangan talablarga zid harakatlar qilish mumkin emas.

Boshqalar va turli fikrlarga tolerant munosabatda bo'lish talab etiladi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.			
2.			

6.

VII. O'QUV FANI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>

2. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н., Одилов Ё. Давлат тилида иш юритиш: амалий кўлланма.–Тошкент: Ўзбекистон, 2020.– 528 бет. http://til.gov.uz/upload/literature/guide/ISH_YURITISH.pdf

Qo'shimcha adabiyotlar:

3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги

	<p>Фармони (“Халк сўзи”. 2017 йил, 8 февраль).</p> <p>7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тadbirlari” тўғрисида”ги қарори (“Халк сўзи”, 2017 йил, 21 апрель)</p> <p>8. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidaginufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.10.2019, 06/19/5712/3034-son) https://lex.uz/docs/4561730</p> <p>9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.</p> <p style="text-align: center;">Elektron manbalar</p> <p>10. www.ziyo.net.uz https://lex.uz/docs</p> <p>11. www.genhisphilol.ru</p> <p>12. http://sahifa.tj/uzbeksko-russkij.aspx-Uzbeksko-ruskiyperevodchik</p> <p>13. http://library.ziynet.uz/</p>
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.(BuxDU Ilmiy kengashining 2021-yil 30-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi.)</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar: A.R.Ahmedov – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. M. O. Xayrullayeva – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: D.N.Yo‘ldosheva-BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini professori, Pedagogika fanlari nomzodi. T.H.Asadov– BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>